

TIJORAT BANKLARDA FINTECHNING RIVOJLANISH TENDENSIYASI (O'ZBEKİSTONDA FAOLİYAT YURITAYOTGAN BANKLAR MISOLIDA)

PhD., dots. **G'ułomova Nigora Farxod qizi**

Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi

ORCID: 0009-0007-5017-4227

nigosh1008@gmail.com

Janaydarova Kamola Abayevna

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi

Toshkent axborot texnologiyalar universiteti Nurafshon filiali

ORCID: 0009-0005-6249-6739

kamolajanaydarova@gmail.com

Sulaymonova Adiba Baxodirjonovna

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi

Toshkent axborot texnologiyalar universiteti

ORCID: 0009-0000-6524-774X

estudianteraro@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada tijorat banklarda FinTech strategiyalari rivojlanishining asosiy yo'naliishlari O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan banklar misolida keltirilgan. FinTech strategiyalarining asosiy yo'naliishlaridan raqamlı to'lov tizimlari, sun'iy intellekt (AI) va ma'lumotlarni tahlil qilish, blockchain, bank mobil ilovalar, raqamlı banklar va FinTech startaplar keltirilgan. Shuningdek, ularning qo'llanilishi natijasida banklarda bo'lgan o'zgarishlar O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank ma'lumotlariga asoslangan holda tahlil qilingan. Bunda banklarda 2001 yildan 2024 yil 1 avgust holatigacha bo'lgan davrdagi muomaladagi plastik kartalar, banklar tomonidan o'rnatilgan to'lov terminallari, bankomatlar, infokiosklar, bank ilovalari, raqamlı banklar to'g'risida ma'lumotlar grafik usulida keltirilib tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: FinTech, raqamlı bank, raqamlı to'lov tizimi, to'lov tizimi operatorlari, to'lov terminal, bankomat, sun'iy intellekt, BigData, kredit skoring, biometrik identifikasiya.

DEVELOPMENT TREND OF FINTECH IN COMMERCIAL BANKS (USING THE EXAMPLE OF BANKS LOCATED IN UZBEKISTAN)

PhD., associate prof. **Gulyamova N. F.**

Graduate School of Business and Entrepreneurship

Janaydarova K. A.

Tashkent University of Information

Technologies named after Muhammad

al-Khwarizmi Nurafshan branch

Sulaymonova A. B.

Tashkent University of Information Technologies

named after Muhammad al-Khwarizmi

Abstract. In this article, the main directions of the development of FinTech strategies in commercial banks are presented on the example of banks operating in Uzbekistan. Among the main areas of FinTech strategies are digital payment systems, artificial intelligence (AI) and data analysis, blockchain, banking mobile applications, digital banks and FinTech startups.

Also, the changes in banks as a result of their application were analyzed based on the data of the Central Bank of the Republic of Uzbekistan. In this, information about plastic cards in circulation in banks, payment terminals installed by banks, ATMs, infokiosks, bank applications, digital banks from 2001 to August 1, 2024 was presented and analyzed graphically.

Keywords: FinTech, digital banking, digital payment system, payment system operators, payment terminal, ATM, artificial intelligence, BigData, credit scoring, biometric identification.

ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ FINTECH В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ (НА ПРИМЕРЕ БАНКОВ НАХОДЯЩИХСЯ В УЗБЕКИСТАНЕ)

PhD., доцент Гулямова Нигора Фархадовна

Высшая школа бизнеса и предпринимательства

Джанайдарова Камола Абаевна

Нурафшанского филиала

Ташкентского университета информационных

технологий имени Мухаммада аль-Хорезми

Сулайманова Адира Бахадыржановна

Нурафшанского филиала

Ташкентского университета информационных

технологий имени Мухаммада аль-Хорезми

Аннотация. В данной статье представлены основные направления развития FinTech-стратегий в коммерческих банках на примере банков, работающих в Узбекистане. Среди основных направлений финтех-стратегий — цифровые платежные системы, искусственный интеллект (ИИ) и анализ данных, блокчейн, банковские мобильные приложения, цифровые банки и финтех-стартапы. Также на основе данных Центрального банка Республики Узбекистан были проанализированы изменения в банках в результате их применения. При этом в графическом виде представлена и проанализирована информация о пластиковых картах, находящихся в обращении в банках, платежных терминалах, установленных банками, банкоматах, инфокиосках, банковских приложениях, цифровых банках с 2001 года по 1 августа 2024 года.

Ключевые слова: FinTech, цифровой банкинг, цифровая платежная система, операторы платежных систем, платежный терминал, банкомат, искусственный интеллект, BigData, кредитный скоринг, биометрическая идентификация.

Kirish.

So'nggi yillarda global miqyosda moliyaviy texnologiyalar (FinTech) sohasida keskin o'zgarishlar va rivojlanishlar kuzatilmoqda. Bu o'zgarishlar, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda, shu jumladan O'zbekiston bank tizimida ham sezilarli darajada namoyon bo'lmoqda. O'zbekiston Respublikasining moliya sektori raqobatbardoshligini oshirish va mijozlarga ko'rsatilayotgan xizmatlarni takomillashtirish maqsadida FinTech innovatsiyalarini qamrab olish zarurati kuchaymoqda.

O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan banklar, an'anaviy xizmatlardan tashqari, raqamli platformalar va innovatsion yechimlar orqali moliyaviy xizmatlarni yanada kengaytirishga intilmoqda. Ushbu maqolada, O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan banklar misolida, FinTechning rivojlanish tendentsiyalari, banklar tomonidan qo'llanilayotgan yangi texnologiyalar, shuningdek, bu jarayonning iqtisodiy va ijtimoiy ta'sirlari tahlil qilinadi. Ushbu tahlil yordamida, FinTechning O'zbekiston bank tizimidagi ahamiyati va kelajagi to'g'risida kengroq tasavvurga ega bo'lish imkoniyati yaratiladi. Fintech (moliya texnologiyalar) sohasidagi rivojlanish, bank xizmatlarining samaradorligini oshirish, mijozlarga yaxshiroq xizmat ko'rsatish va yangi moliyaviy mahsulotlarni yaratish imkoniyatlarini taqdim etmoqda.

Adabiyotlar sharhi.

Maqolaning asosiy qismiga o'tishdan oldin FinTech tushunchasi haqida bir qancha kitoblar hamda maqolalarda keng qamrovli tadqiqotlar olib borilganligini ta'kidlab o'tish lozim. Xususan, Zhou (2022) esa sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar va blokcheyn kabi raqamli texnologiyalarning rivojlanishi bilan mamlakatlar bosqichma-bosqich raqamli iqtisodiyot davriga kirib kelayotganini ta'kidladi.

Daniela Gabor o'z "Financial Technology and the Future of Finance" (2020) maqolasida fintechning iqtisodiy va moliyaviy tizimlarga ta'siri, shu jumladan, global moliya bozorlarida yuzaga keladigan o'zgarishlar va qiyinchiliklar o'rganiladi. Gabor, fintechning iqtisodiy o'sishga va moliya siyosatiga ta'sirini tahlil qiladi.

Rossiyalik iqtisodchi Yeshtokin (2021) o'zining "Российский финтех в национальной финансовой системе: защитник интересов или скрытая угроза?" (Экономика, предпринимательство и право) nomli maqolasida FinTech kelib chiqishi juda qadimlarga borib taqalishi va uning ilk ajdodlarini shu maqoladagi Fintechning moliyaviy bozorning mustaqil qatnashuvchisi sifatida shakllanish bosqichlarining xronologik tavsifida keltirgan. Bunda ilk FinTech ajdodini moliyaviy aktivlar egalari o'z buyruqlarini va ko'rsatmalarini o'zları ishongan shaxslar yoki boshqaruvchilariga yetkazish vositasi bo'lgan qog'oz deb ko'rsatiladi.

Shuningdek, mahalliy iqtisodchilardan Mahmudova (2022) hammulliflikda 2022-yil chop etilgan "O'zbekistonda moliyaviy texnologik korxonalarining rivojlanishi va istiqbollari" nomli maqolada FinTech to'g'risida fikrlar yuritilib unga ta'rif berib o'tilgan. Maximova va bosh.lar (2023) tomonidan hammulliflikda tayyorlangan "Industriya 4.0" o'quv qo'llanmada ham bir qator fikrlar bildirib atamaga ta'rif ham keltirilgan (Kamola, 2024).

Bu kitoblar va maqolalar FinTech sohasining turli jihatlarini o'rganishga, uning iqtisodiy va moliyaviy tizimlarga ta'sirini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur maqolada mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan tijorat banklarining raqamli iqtisodiyotga o'tish sharoitida o'z faoliyatlarini transformatsiyalash, ya'ni o'z foliyatlarida moliyaviy texnologiyalarni qo'llash jarayonlari milliy statistik rasmiy manbalardan foydalangan holda o'rganiladi. Maqolani shakllantirish jarayonida o'rganish, tanlab olish, qiyoslash, ilmiy-nazariy va empirik kuzatuvlardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

O'zbekiston hududida faoliyat yuritayotgan banklarda FinTech strategiyalarining rivojlanishi quyidagi asosiy yo'nalishlarga bo'lib o'rganish mumkin.

1.Raqamli to'lov tizimlari: mobil ilovalar, elektron hamyonlar va kontaktsiz to'lov tizimlari kabi texnologiyalar bank xizmatlarini yanada qulay va tezkor qilishga yordam beradi. Masalan, O'zbekistonda "Click" va "Payme" kabi mobil to'lov tizimlari keng tarqalgan bo'lib, ular xalqaro standartlarga mos xizmatlarni taklif etmoqda. Bularidan tashqari O'zbekistonda Humans superapp, OsonPay hamyon, to'lov xizmatlaridan Uzcard, Humo, Vizacard va endi kirib kelgan muddatli to'lov uchun mo'ljallangan Unired kartasi aholi orasida foydalanimoqda.

O'zbekiston Markaziy banki o'z zaytida e'lon qilgan "To'lov tizimi operatorlari reestri" va "To'lov tashkilotlari reestri" ma'lumotlariga ko'ra 2024 yil avgust holatiga O'zbekistonda to'lov tizimining ikkita operatori (Humo, Uzcard) va 43 ta to'lov tashkilotlari (Payme, Click, Oson, Uzum va boshqalar) ro'yxatdan o'tgan (Kamola, 2024).


Bugungi kunda asosan Uzcard hamda Humo plastik kartalari ko'proq muomalada. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 24 sentabrdagi "Plastik kartalar orqali hisob-kitob tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 445-sonli qaroriga asosan Yagona umumrespublika prosessing markazi tashkil etilib, "Uzcard" to'lov

tizimi faoliyat yurita boshladi. 2020 yil 11 aprelda Yagona umumrespublika prosessing markazi MChJga "Uzcard" to'lov tizimi operatori lisenziyasi Markaziy bank tomonidan taqdim etildi¹.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 sentabrdagi "Milliy to'lov tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3945-sonli qaroriga (Qaror, 2018) asosan Milliy banklararo prosessing markazi tashkil etilib 2019 yilning I-choragidan boshlab "Humo" to'lov tizimi ishga tushirildi. Milliy banklararo prosessing markazi MChJga 2020 yil 11 aprelda "Humo" to'lov tizimi operatori lisenziyasi Markaziy bank tomonidan berildi.

Click orqali foydalanuvchilar bank kartalaridan foydalanib to'lovlarni amalga oshirishi, hisob raqamlarini boshqarishi va hatto kommunal xizmatlar uchun to'lovlarni amalga oshirishi mumkin. Click mobil ilovasi orqali amalga oshirilgan to'lovlarni tezkor va xavfsiz bo'lishi bilan ajralib turadi.

Payme yana bir mashhur mobil to'lov tizimi bo'lib, u orqali foydalanuvchilar nafaqat to'lovlarni amalga oshirishi, balki internet va mobil aloqa uchun to'lovlarni ham bajarishi mumkin. Bu tizim, shuningdek, kredit va debet kartalarini qo'llab-quvvatlaydi va tezkor tranzaksiyalarni taqdim etadi.



1-rasm. Muomaladagi bank kartalari soni 2001-2022 yillar 1 yanvar holatiga², 2023³ va 2024⁴ yillar 1 avgust holatiga

Manba: Ўзбекистон Республикаси Марказий банкнинг www.cbu.uz сайти

1-rasmda O'zbekistonda 2001 yildan 2024 yilgacha mamlakatda muomalada bo'lgan plastik kartalar sonining o'sish dinamikasi berilgan bo'lib, bunda o'sish yildan yilga juda tez sur'atlarda bo'layotganligini ko'rish mumkin. Mazkur diagrammadan ko'rinib turibdiki, 2001

¹ [Bank kartalari asosida banklararo chakana to'lov tizimlari - O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki \(cbu.uz\)](https://cbu.uz/oz/statistics/paysistem/1279226/)

² [Банк карталари асосида банклараро чакана тўлов тизимлари - Ўзбекистон Республикаси Марказий банки \(cbu.uz\)](https://cbu.uz/oz/statistics/paysistem/1843087/)


³ <https://cbu.uz/oz/statistics/paysistem/1279226/>

⁴ <https://cbu.uz/oz/statistics/paysistem/1843087/>

yildan 2017 yilgacha bank kartalar soni jadallik bilan o'sib bormoqda, biroq 2017 yildan boshlab 2018, 2019 yillar ularning soni sezilarli darajada kamaygan. Buni shu bilan izohlash mumkinki, 02.02.2017 yilda Prezidentning "Ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalarni to'lash mexanizmini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni bilan bog'liq. Ushbu Farmonda 2017 yilning fevral oyidan boshlab quyidagi to'lovlar naqd shaklda berila boshlandi (Qaror, 2017):

- 1) barcha turdag'i pensiyalar - butun mamlakat hududida hech qanday cheklovlar sиз to'liq hajmda;
- 2) tog'li va olis tumanlardagi byudjet tashkilotlari xodimlariga ish haqi to'lash, ijtimoiy to'lovlar hech qanday cheklovlar sиз to'liq hajmda;
- 3) oliy o'quv yurtlari talabalariga stipendiyalarning kamida 50 foizi.

Dastlab, ya'ni 2001 yil boshiga atiga 78 ming dona plastik karta muomalada bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024 yil 1avgust holatiga ko'ra 50934 ming donaga yetgan. Bundan shuni aniqlash mumkinki, muomaladagi plastik kartalar soni 2024 yili 2001 yilga nisbatan 50856 ming donaga yoki 653 barobarga oshgan.



2-rasm. O'zbekiston Respublikasi 2003-2022 yillar 1 yanvar holatiga, 2023 va 2024 yillar 1 avgust holatiga o'rnatilgan to'lov terminallari soni holatiga

Manba: Ўзбекистон Республикаси Марказий банкнинг www.cbu.uz сайти

2-rasmda O'zbekiston hududida 2003-2024 yillar uchun o'rnatilgan to'lov terminallari inografikasi berilgan bo'lib, 2003 yilda 2021 yilgacha ushbu ko'rsatkichda faqat o'sish bo'lganligini ko'rish mumkin. Lekin 2022 yildan 2024 yilgacha to'lov terminallar sonida kamayish kuzatiladi. Buni elektron tijorat (e-commerce), onlayn mobil ilovalar va onlayn to'lov tizimlarining rivojlanishi, shuningdek, hududlarda plastik kartalardan naqd pullar yechib olish uchun mo'ljalangan bankomatlar sonining o'sishi bilan izohlash mumkin. Shunday qilib, to'lov terminallar soni 2003 yildan 2021 yilgacha 1201 tadan 438410 ta yetdi, ya'ni 437209 taga yoki

365 barobarga o'sdi. Ushbu ko'rsatkich 2021 yildan keyin 2024 yil 1 avgust holatiga 438410 tadan 423989 tagacha, ya'ni 14421 taga kamaygan.



3-rasm. O'zbekistonda 2001-2022 yillar 1 yanvar holatiga, 2023 va 2024 yillar 1 avgust holatiga o'rnatilgan bankomat va infokiosklar soni

Manba: Банк карталари асосида банклараро чакана тўлов тизимлари - Ўзбекистон Республикаси Марказий банки (cbu.uz)

3-rasmida 2001-2024 yillar uchun O'zbekiston hududida o'rnatilgan bankomat va infokiosklar sonining o'sish grafigi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki saytida joylashtirilgan ma'lumotlar asosida tuzilgan bo'lib, bankomat va infokiosklarning sonida faqat o'sishni kuzatish mumkin. Bu shundan dalolat beradiki, naqd pul taqchilligi yillar o'tgan sayin sezilarli darajada kamayib borgan, shuningdek, banklar soni ko'payib ular o'rtasida raqobat kuchayishi natijasida ular o'z mijozlariga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish, plastik kartochkalardan foydalanishda ularga qulaylik yaratish maqsadida ko'plab joylarga o'z bankomat infokiosklarini o'rnatgan. Dastlab 2001 yilda ular soni 102 tani tashkil qilgan bo'lsa, 23 yil davomida ushbu ko'rsatkich 27844 tagacha o'sgan. Bu ko'rsatkich 273 barobarga oshganligini bildiradi. Hozirgi kunga kelib naqd pul muammosi yoq bo'lib, banklar o'zlarini mijozlarni ko'proq naqd pul bilan ta'minlash tarafdarlaridir. Chunki ular tomonidan mijozlarga ko'rsatilayotgan xizmat uchun haq foiz ko'rinishida oladilar.

2. Sun'iy intellekt (AI) va ma'lumotlarni tahlil qilish: AI va BigData texnologiyalari banklarda mijozlarni tahlil qilish, kredit riski va firibgarlikni aniqlashda yordam beradi. O'zbek banklari bu texnologiyalardan foydalanib, qaror qabul qilish jarayonlarini yanada optimallashtirishmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldag'i "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori (Qaror, 2021) asosida mamlakatimizda ilm-fan va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari inqilobining asosi bo'lgan sun'iy intellektdan foydalanishni kengaytirish

maqsadida dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqish va joriy qilish uchun har tomonlama sharoitlar yaratildi.

Kapitalbank AI va Big Data texnologiyalarini qo'llash orqali kreditning to'g'ri baholanishini va mijozlarning moliyaviy holatini yaxshiroq tahlil qilish imkoniyatlarini yaratmoqda. Masalan, bank mijozlarning tarixiy ma'lumotlari asosida kreditlarni tasdiqlash va shaxsiylashtirilgan takliflar taqdim etish uchun AI algoritmlaridan foydalanadi.

AT Aloqabank Cradle AI – video tahliliy tizim, Zypl. AI – Sun'iy intellekt asosidagi kredit skoring va Face-ID – Biometrik identifikatsiya tizimlaridan o'z faoliyatida samarali foydalanib kelmoqda⁵.

Ipoteka banki firibgarlikni aniqlash va oldini olish maqsadida ma'lumotlarni tahlil qilish va AI texnologiyalaridan foydalanadi. Masalan, bank, turli tranzaksiyalarni tahlil qilib, noaniq yoki shubhali faoliyatlarni aniqlashda AI asosidagi tizimlarni joriy etgan.

3.Blokcheyn, ayniqsa, xavfsiz va shaffof tranzaksiyalarni amalga oshirishda muhim rol o'yinaydi. O'zbekistonda blokcheyn texnologiyalari asosida turli moliyaviy xizmatlar ishlab chiqilmoqda, jumladan, kriptovalyutalar va smart-kontraktlar.

O'zbekistonning eng yirik to'lov tizimlaridan biri bo'lgan Uzcard va Humo, blokcheyn texnologiyalarini qo'llashni rejalashtirmoqda. Bu texnologiya orqali tranzaksiyalarni xavfsizroq va shaffofroq qilish mumkin bo'ladi, bu esa firibgarlik va noto'g'ri ma'lumotlarni kamaytiradi.

4.Bank mobil ilovalar. FinTech kompaniyalari bilan raqobatlashayotgan ushbu mobil ilovalar nafaqat onlayn banklarga xos, balkim an'anaviy banklar ham ularni o'z faoliyatlariga samarali tadbiq qilib foydalanib kelmoqda. Hozirgi kunga kelib barcha banklarning o'z ilovalari mavjud bo'lib, ular banklarga o'z mijozlariga samarali xizmat ko'rsatishda yordam berib kelmoqda. Quyida keltirilgan 1-jadvalda O'zbekiston hududida faoliyat yuritayotgan 21 ta bank va ularning ilovalari hamda ilovalarnieng mijozlar tomonidan yuklashlar soni 01.09.2024 yil holatiga keltirilgan. Ushbu jadval yordamida bank ilovalari orasida eng ommaboplari qaysilari ekanligi to'g'risida ma'lumotga ega bo'lish mumkin.

1-jadval

Bank ilovalari haqida ma'lumot

Nº	Bank nomi	Ilova nomi	Yuklashlar soni
1.	TBC bank	TBC UZ	5 mln. dan ziyod
2.	Anor bank	Anorbank	5 mln. dan ziyod
3.	Uzum Bank onlayn	Uzum bank	5 mln. dan ziyod
4.	Kapital bank	Kapitalbank	1 mln. dan ziyod
5.	Ipak Yoli bank	"Ipak Yoli Mobile"	1 mln. dan ziyod
6.	NBU	Milliy 2.0	1 mln. dan ziyod
7.	Aloqa bank	Zoomrad	1 mln. dan ziyod
8.	O'zsanoatqurilishbank	Joyda	1 mln. dan ziyod
9.	Infinbank	InfinBANK	1 mln. dan ziyod
10.	AT Agro bank	Agrobank Mobile	1 mln. dan ziyod
11.	Davr bank	Davr Mobile	1 mln. dan ziyod
12.	Asaka bank	Asaka Mobile	1 mln. dan ziyod
13.	Ipoteka bank	Ipoteka Mobile	1 mln. dan ziyod
14.	Mikrokreditbank	MKB Mobile	500 mingdan ziyod
15.	Ravnaq-bank	My RVK	500 mingdan ziyod
16.	Hamkorbank	Hamkor Mobile	500 mingdan ziyod
17.	Turonbank	MyTuron	100 mingdan ziyod
18.	Xalq banki	Xalq Bank Business	100 mingdan ziyod

⁵ Sun'iy intellekt - AT «Aloqabank»

19.	Asiya Alliance Bank	MyAlliance	100 mingdan ziyod
20.	Biznesni rivojlantirish banki	Quant	100 mingdan ziyod
21.	Orient Finans Bank	OFB	100 mingdan ziyod

Manba: muallif tomonidan play market ma'lumotlariga asoslanib 01.09.2024 yil holatiga tuzilgan.

Jadvaldan ko'rinish turibdiki, Ozbekistonda faoliyat yuritayotgan banklar ilovalarining eng ommaboplari TBC bankning TBC UZ, Anor bankning Anorbank va Uzum bankning Uzum bank ilovalari bo'lib, ular mazkur yilning 1 sentabr holatiga 5 mln.dan ziyod Play Marketdan yuklab olingan. Bunga asosiy sabab – ushbu banklar faqat onlayn xizmat ko'rsatishlaridadir. TBC bank va Anorbanklar raqamli banklar hisoblanadi.

4.Raqamli banklar va fintech startaplar: Yangi raqamli banklar va FinTech startaplar moliyaviy xizmatlarni innovatsion tarzda taklif etmoqda. O'zbekistonda yangi raqamli banklar va fintech startaplar soni ortib bormoqda, bu esa raqobatni kuchaytirib, mijozlarga yanada yaxshi xizmat ko'rsatishga imkon yaratmoqda.

2-jadval

2024 yil 1 avgust holatiga faoliyat yuritayotgan raqamli banklarda muomaladagi bank plastik kartalari, terminallar, hamda 2023 va 2024 yillar yanvar-iyul oylari davomida to'lov terminallari orqali tushgan tushumlar to'g'risida ma'lumot

№	Raqamli banklar nomi	Muomaladagi bank kartalari soni		O'rnatilgan to'lov terminallari soni		Yanvar-iyul oylari davomida to'lov terminallari orqali tushgan tushumlar (mln.so'mda)	
		01.08. 2023 holatiga	01.08. 2024 holatiga	01.08. 2023 holatiga	01.08. 2024 holatiga	2023 yil	2024 yil
1.	TBC bank	1405231	3772897	48	27	3173461,16	5267411,43
2.	Anor bank	1553205	1863764	1112	1372	232271,56	496269,42
3.	Avo bank		21062		0		842107,68
4.	Uzum bank	0	1301	0	0	3399375,81	3306145,1
5.	Apex bank		1352		0		336,24
6.	Smart bank					65,45	1433,25
7.	Yangi bank		2950		197		140998,32
8.	Hayot bank	64	7132	9	63		14180,81

*Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlariga asosan muallif tomonidan tuzildi.
(Центральный банк Республики Узбекистан (cbu.uz)).*

O'zbekistonda ochilgan birinchi raqamli bank Gruziyaning TBC Bank Group PLC kompaniyasining sho'ba banki - TBC banki bo'lib, u o'z faoliyatini 2020 yil oktabr oyida boshlagan. Shu yilning o'zida ikkinchi raqamli bank, lekin birinchi milliy raqamli bank - Anorbank o'z faoliyatini boshladidi. Bugungi kunga kelib ularning soni 8 taga yetdi. 2.1-jadvaldan ko'rinish turibdiki, o'tgan yili bank kartalari soni bo'yicha Anor bank yetakchilik qilgan bo'lsa, to'lov terminallari orqali tushgan tushumlar bo'yicha TBC bank oldinda. Mazkur yilning 1 avgust holatiga ko'ra muomaladagi bank kartalari soni (3772897 ta) va to'lov terminallari orqali tushumlar (5267411.43 mln. so'm) bo'yicha birinchi o'rinni TBC bank egallab turibdi. Avo bank, Apex bank va Yangi bank o'z faoliyatlarini 2024 yil boshlaganliklari uchun 2023 yil uchun hech qanday ko'rsatkich ko'rsatilmagan.

Yana shuni ta'kidlab o'tish joizki, 2023 yil o'z faoliyatlarini boshlagan TBC bank, Anor bank, Uzum bank va Smart banklarda bank kartalari soni (Smart bankdan tashqari) hamda to'lov terminallari orqali tushgan tushumlar bo'yicha ko'rsatkichlarda sezilarli darajada o'sish bo'lgan. Bu esa o'z navbatida ushbu banklar aholi orasida ommalashayotganidan, shunigdek aholi ishonchini qozonib borayotganligidan darak beradi.



4-rasm. O'zbekistonda moliyaviy texnologiyalarning rivojlanishi (2023 yil uchun)

Manba: (Анализ развития финтех отрасли) O'zbekistonning "Raqamli iqtisodiyot tadqiqot markazi" davlat myassasasi olib borgan tadqiqot natijalariga ko'rta.

O'zbekistonda FinTechning rivojlanish tendentsiyasi o'zining dinamikligi va innovatsion imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Oxirgi yillarda banklar va moliyaviy muassasalar FinTech texnologiyalarini faol ravishda joriy etishmoqda, bu esa bir qator muhim yo'naliislarda o'zgarishlarga olib keldi.

1.Raqamli to'lov tizimlarining takomillashuvi - mobil ilovalar, elektron hamyonlar va kontaktsiz to'lov tizimlari kabi texnologiyalar bank xizmatlarini yanada qulay va tezkor qilishga yordam beradi.

4-jadval

Elektron pullar tizimlari reestri (2023 yil uchun)

№	Elektron pullar tizimlarining nomi	Operator nomi	Emitent nomi	Elektron pullarning muomalaga chiqarilgan sana
1.	"OSON"	"BRIO GROUP" MChJ	"Алокабанк" ATB	11.10.2022 y.
2.	"E-CARD"	"INSPIRED" MChJ	"Универсалбанк" ATB	21.08.2020 y.
3.	"CLICK"	"CLICK" MChJ	"Агробанк" ATB	21.08.2020 y.
4.	"alif.mobi"	"ALIF TECH" MChJ	"Алокабанк" ATB	02.11.2020 y.
5.	"A-pay"	"CENTER FOR DIGITAL TECHNOLOGY AND INNOVATION" MChJ	"Uzum bank" AJ	01.07.2022 y.
6.	"GlobalPay"	"Global Solutions" MChJ	"Алокабанк" ATB	17.11.2021 y.
7.	"Payway"	"Payway" MChJ	"Uzum bank" AJ	29.07.2022 y.
8.	"Apelsin"	"Uzum bank" AJ	"Uzum bank" AJ	29.07.2022 y.
9.	"ExMoney"	"O'zbekiston Respublikasi Tovar xomashyo birjasi" AJ	"Трастбанк" XAB	30.08.2022 y.
10.	"UCOIN"	"Универсал банк" ATB	"Универсал банк" ATB	17.02.2023 y.
11.	"PAYNET WALLET"	"UZPAYNET" MChJ	"Народный банк" ATB	18.07.2023 y.

Manba: Ўзбекистон Республикаси Марказий банки (cbu.uz)

2. Bank tizida Sun'iy intellekt (AI) va BigData texnologiyalarini qo'llash orqali banklarda mijozlarni tahlil qilish, kredit riski va firibgarlikni aniqlashda katta imkoniyatlar bermoqda. O'zbek banklari bu texnologiyalardan foydalanib, qaror qabul qilish jarayonlarini yanada optimallashtirishmoqda.

3. Hozirda nafaqat raqamli banklar balkim an'anaviy banklar xizmatlaridan masofadan, yani bankka tashrif buyurmay turib foydalanish mumkin. Banklar o'z mobil ilovalarni o'z faoliyatlariga samarali tadbiq qilib foydalanib kelmoqda. Hozirgi kunga kelib barcha banklarning o'z ilovalari mavjud bo'lib, ular banklarga o'z mijozlariga samarali xizmat ko'rsatishda yordam berib kelmoqda.

4. O'zbekistonda moliyaviy xizmatlarni innovatsion tarzda taklif etayotgan raqamli banklar va fintech startaplar soni ortib bormoqda. Bu esa o'z navbatida moliyaviy bozorda raqobatni kuchaytirib, mijozlarga yanada yaxshi xizmat ko'rsatishga imkon yaratmoqda.

2024 yilning fevral oyidan boshlab yuqorida jadvalda keltirilgan elektron pullar tizimlaridan tashqari yana ikkita: 1HLSW va UZUM NASIYA amal qilishni boshlagan.⁶

Xulosa va takliflar.

Hozirda O'zbekistonda 32 ta bank, 43 to'lov tashkilotlari (13.09.2024 yil holatiga), faoliyat yurimoqda. Shulardan muomaladagi plastik kartalar soni bo'yicha quyidagi banklar birinchi uchlikni egallab turibdi: 1) Xalq banki – 11298785 ta; 2) Agrobank – 4852620 ta va 3) Ipoteka bank – 4358502 ta.

2004 yil 1 avgust holatiga joylarda banklar tomonidan o'rnatilgan terminallar soni - 423989 ta, bankomat va infokiosklar soni – 27844 ta, muomaladagi plastik kartalar soni - 50934084 ta, masofadan bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilarning soni jami - 45626947 tani tashkil etadi. 27.05.2024 yil holatiga to'lov tizim operatorlari 2 nafar, ya'ni Uzcard va Xumo.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda FinTechning rivojlanish tendentsiyasi bank sektorining modernizatsiyasi va raqobatbardoshligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Bu jarayon davom etar ekan, banklar va FinTech kompaniyalari o'rtasida hamkorlik, innovatsiyalarni joriy etish va regulatorlar bilan aloqalarni mustahkamlash orqali moliyaviy xizmatlar sifatini yanada oshirish imkoniyatlari mavjud. Yangi texnologiyalar, jumladan, sun'iy intellekt, blokcheyn, va mobil to'lovlar bank xizmatlarini yanada qulay va samarali qilishga yordam bermoqda. FinTech kompaniyalari mijozlar uchun shaxsiylashtirilgan xizmatlar taklif etish orqali banklarning raqobatbardoshligini oshirmoqda. Shuningdek, onlayn va mobil bank xizmatlariga bo'lgan talabning ortishi tijorat banklariga o'z xizmatlarini kengaytirish va yangi bozor segmentlariga kirish imkoniyatini bermoqda.

Biroq, FinTechning rivojlanishi bilan birga, xavfsizlik, regulyatsiya va ma'lumotlarni himoya qilish masalalari ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Tijorat banklari ushbu o'zgarishlarga moslashish va raqobatbardosh bo'lish uchun guyidagilarni amalga oshirishlari zarur.

1.Innovatsiyalarni qabul qilish. Tijorat banklari yangi texnologiyalarni joriy etishga tayyor bo'lishlari kerak. Shu jumladan, sun'iy intellekt va ma'lumotlar tahlilidan foydalanib, mijozlar ehtiyojlarini yanada yaxshi tushunish imkoniyatiga ega bo'lishlari lozim.

2.Hamkorlik. FinTech startaplari bilan hamkorlik o'rnatish tijorat banklariga yangi xizmatlar va mahsulotlar ishlab chiqishda yordam berishi mumkin. Bu, shuningdek, banklarning innovatsion ekotizimda faol ishtirok etishiga yordam beradi.

3.Xavfsizlikka e'tibor. Moliya sohasidagi raqamli tahdidlar ko'payishi bilan banklar ma'lumotlar xavfsizligi va mijozlar maxfiyligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratishlari zarur. Yangi xavfsizlik texnologiyalarini joriy etish va malakali mutaxassislarni jalb qilish muhim.

⁶ Elektron pullar o'zi nima? - O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining moliyaviy savodxonlik bo'yicha axborot-ta'lim veb-sayti (finlit.uz)

4.Mijozlarga e'tibor. Banklar mijozlarga yo'naltirilgan xizmatlarni taklif etishga e'tibor berishlari kerak. Mijozlar bilan muloqot va feedback mexanizmlarini rivojlantirish, shuningdek, shaxsiy lashtirilgan takliflarni yaratish banklarning raqobatbardoshligini oshiradi.

5.Regulyatorlar bilan hamkorlik. Banklar va regulyatorlar o'rtasida ochiq muloqot o'rnatish, FinTechning rivojlanishiga yordam berishi va xavfsizlikni ta'minlashi mumkin. Regulyatsiyalarni tushunish va ularga rioya qilish banklarning muvaffaqiyati uchun muhimdir.

Ushbu takliflar tijorat banklarining FinTech orqali rivojlanishiga yordam berishi va moliya sohasidagi o'zgarishlarga moslashishlariga ko'maklashishi mumkin.

Adabiyotlar/ Литература/ Reference:

Kamola, J. (2024). FINTECHNING SHAKLLANISH BOSQICHLARI, TUSHUNCHASI VA MAZMUN MOHIYATI. *Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali*, 2(16), 31-40.

Mamadiyarov, Z. (2022). РАҚАМЛИ ТРАНСФОРМАЦИЯ ЖАРАЁНИДА БАНК ХИЗМАТЛАРИНИ МАСОФАДАН КЎРСАТИШНИ ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ

Maxmudova G.N., Gulomova N.F., Zayniddinov B.G., Shadmankulova D.A. (2023) Industriya 4.0, (127-b.)

Maxmudova G.N., Karimov D.M., Xaitboyev B.X. (2022). O'zbekistonda moliyaviy texnologik korxonalarining rivojlanishi va istiqbollari, 2-b, Iqtisod va moliya/Эконо-мика и Финансы, 11(159, 53-b)

Qaror (2017) PQ-2753-son 02.02.2017. Ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalarni to'lash mexanizmini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar. (lex.uz)

Qaror (2018) PQ-3945-son 19.09.2018. Milliy to'lov tizimini rivojlanтирish chora-tadbirlari to'g'risida (lex.uz)

Qaror (2021) PQ-4996-сон 17.02.2021. Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida (lex.uz)

Zhou, Y. (2022) The Application Trend of Digital Finance and Technological Innovation in the Development of Green Economy. *J. Environ. Public Health*, 2022, 1064558.

Ештокин С.В. (2021) Российский финтех в национальной финансовой системе: защитник интересов или скрытая угроза? // Экономика, предпринимательство и право. Том 11. – № 8. – С. 1915-1944. – doi: [10.18334/epp.11.8.112709](https://doi.org/10.18334/epp.11.8.112709)